

## TABIAT HODISALARINI O'QITISH TIZIMINI O'RGANISH.

*Axborot fonida fizika*

*Andijon davlat pedagogika*

*instituti o'qituvchisi O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi*

*Fizika va astronomiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Murodjonova Nozaninbegim Rag'batillo qizi*

*Annotasiya: butun hayotimiz davomida tabiat hodisalari judayam katta ro'l o'ynaydi. Bu hodisalarni o'quvchilarga o'qitish usullarini isloh qilish ilgari surilmoqda. Bunday usullar yordamida yoshlarni fanga qiziqtirish, dunyo qarashini oshirish, darsga jalb etish va ma'lum darajada yangi qiziqarli bo'lgan ma'lumotlar olish mumkin.*

*Kalit so'zlari: tabiat hodisalari, o'qitish usullari, o'quvchilar, usullar.*

O'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularni dunyo qarashini shakllantirishdan iborat. Bu vazifani asosan boshlang'ich sinflarda amalga oshirishda tabiatshunoslik fani muhim ro'l o'ynaydi. Bu fanda tabiat hodisalari mavzusini judayam katta negizi hisoblanadi. Bu jonli tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risidagi bilimlarni to'lashga imkon beradi. Ayniqsa hozirgi paytda pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik o'quv predmeti sifatida bu hodisalarni o'qitish fanining ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari bilan yaxshi tanish bo'lishlari kerak. Bu hodisa ya'ni "Tabiat hodisalari" mavzusini o'qitish metodikasini yaxshi bilish o'quvchilarga to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi. Metodika o'quvchilarni o'ziga jalb qilish, qiziqtirish, turli mavzuga oid bo'lgan qurollar bilan ta'minlash, o'qitish mahoratini egallab olishiga judayam katta imkon yaratib beradi. Bizni o'rab turgan va inson qo'li bilan yaratilmagan borliq tabiatidir. Tabiatda doim turli xil keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi: ba'zan ob havo ochiq bo'lsa, bazida shamol esadi, goh barglar to'kiladi. Bularning barchasi tabiat hodisalariga bo'la oladi. Tabiat

hodisalari Yer, Quyosh, Oy turli xil bulutlar va yer maydonlarining o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladi.

Eng ko'p uchraydigan tabiat hodisalaridan biri bu yomg'ir hisoblanadi. Yomg'ir -- bu bulutlardan mayda tomchilar ko'rinishida oqib turuvchi atmosfera yog'in turi. Tomchilar hajmi 0,4 mm dan 7mm gacha bo'ladi. Quyosh issiqligi ta'sirida ko'llar, daryolar, dengizlar, okeanlar va jilg'alar yuzidagi suvlar bug'lanib parga aylanadi. Bug' juda yengil bo'lib, yuqoriga, havoga ko'tariladi va u yerda mayda suv zarralari to'planib bulutlarga aylanadi. Zarralar shu qadar kichkinaki, ular havoda bug'lanib ketadi. Agar havo isib ketsa, bulut tarqalib, butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin, shunda zarrachalar bug'lanib, ko'rinmas holga keladi. Suvuq tushganda esa ular birlashadi - yuz minglab suv zarralari bitta to'liq vaznli tomchini hosil qiladi. Bunday tomchilar osmonda bug'lanishni davom ettirish uchun og'irlik qiladi, ular yerga bo'lib yog'a boshlaydi.

2. O'qitish va qobiliyatidagi muommolar . Trening.

2.1. An'anaviy o'qitish usullari.

Tabiat hodisalari fizikasini odatda an'anaviy dars o'tish usulidan foydalaniladi. Dars davomida o'quvchilar avvalgi mavzuni ko'rib chiqadi, so'ngra yangi mavzuni tushuntiradi. Keyin savol javob orqali mustahkamlanadi va uyga vazifa beradi. An'anaviy o'qitish modeli bitta o'qitish usulidan foydalaniladi va sinf mavzusi talabaning anglashi ekanligiga e'tibor bermaydi. Shu bilan o'quvchilarni mavzuga bo'lgan qiziqishlari pasayib boradi.

2.2. Baholash rejimi.

Hozirgi vaqtda odatiy ball va finalning kombinatsiyasi imtixon ballari asosan baholash usuli hisoblanadi. Shu holda jarayonni baholash hisobga olinadi. Hozirgi paytda jarayonni baholash asosan davomat va darsda savollarga javob berishi bilan yakunlanib qolmoqda. Bu baholash o'quvchini yaxshilamaydi balki, qiyinlashtiradi.

3. Yaxshilash choralari.

3.1. Sinf boshqaruvini isloh qilish.

O'qituvchilar qattiq tartib intizomga asoslangan holda o'quvchilarga erkinlik

yaratib berishlari zarur. O'qitish usullarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'liq foydalanishgan bo'lishi kerak. Dars davomida o'quvchilar evristikadan foydalanishlari kerak, o'qitish, muloqot qilish, izlanish kabi. Bu o'qitish usuli mavzuni yaxshi tushunishga imkon yaratib beradi.

### 3.2. Islohotni baholash usuli.

Jarayonni baholash usulini oshirish kerak. Sinfda ishlash, sinf ichidagi testlar, bilim testlari, maqollar, mavzuga oid taqdimotlar va boshqalar bilan darsni mazmunini oshiradi, o'quvchilarni ishtirokini jadallashtiradi shu kabi harakatlar kuzatiladi. Xulosa qilib aytganda, biz bazi aniq bo'lgan va ko'p kuzatilgan muammolarga yechim topishga harakat qildik. Tabiat hodisalari mavzusini o'qitishni hisobga olgan holda u bilan bog'liq bo'lgan muammolarni takomillashtirish to'g'risida aytib o'tdik. Albatta darsda o'quvchilarni faolligini, ishtirokini rag'batlantirishni kutib qolamiz. O'quvchilarni bilim olishga qiziqishi, o'quvchilarni asosiy ro'lga aylantirish, kelajakda o'z bilimlari borasida jamiyatimizga foyda keltiruvchi zamin bo'lishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Yosh bilimdon ensiklopediasi. Toshkent -2020.
2. Tabiat hodisalari.Dilorom Ismoilova. "Ziyo nashr "
3. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi.  
M.I.Nuroddinova. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi. Toshkent -2005.
4. Internet manbalari. O'zbekiston milliy kutubxonasi  
[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)